Vol. 1, Issue 3

JAHON VA O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKASIDA TA’LIM MAZMUNI KONSEPSIYALARI: TARIXIY-NAZARIY TAHLIL

Anvarbekova Yorqinoy Ortiqali qizi
Turon university Andijon filiali magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon va O‘zbekiston pedagogikasida ta’lim mazmuni konsepsiyalarining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Ensiklopedik, formal, utilitar, pragmatik, fan tuzilmasiga asoslangan, faoliyatli-tajribaviy hamda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuvlarning mohiyati, afzallik va cheklovlari yoritilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim mazmunini belgilashning tarixiy bosqichlari Sharq mutafakkirlari merosidan “Yangi O‘zbekiston” davriga qadar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida o‘qituvchining ta’lim mazmunini tanlash va saralash faoliyatini belgilovchi yetti guruh nazariy-pedagogik mezon asoslangan hamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim mazmuni, konsepsiya, didaktika, kompetentlik yondashuvi, o‘quv dasturi, davlat ta’lim standarti, tanlash va saralash, mezon, o‘qituvchi faoliyati.

Kirish

Bugungi globallashuv, axborot hajmining misli ko‘rilmagan darajada o‘sishi va sun’iy intellekt texnologiyalari sharoitida ta’lim tizimining eng muhim savollaridan biri – «nimani o‘qitish kerak?» degan savolga javob topish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Bilimlar har bir necha yilda yangilanayotgan bir paytda ularning barchasini o‘quvchiga yetkazish imkonsiz bo‘lib qoldi. Shu sababli ta’lim mazmunini ongli ravishda tanlash va saralash har bir o‘qituvchi kasbiy faoliyatining markaziy bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Jahon hamjamiyati bu borada yangi yondashuvlarni ilgari surmoqda. YUNESKOning 2021 yildagi hisobotida ta’lim uchun yangi ijtimoiy shartnoma

zarurligi, o‘quv dasturlari esa hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi ta’kidlangan [1]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning «Learning Compass 2030» konsepsiyasida esa o‘quvchining o‘z ta’lim yo‘lida faol ishtirokchi bo‘lishi va o‘zgartiruvchi kompetensiyalarni shakllantirish asosiy g‘oya sifatida ilgari surilgan [2].

O‘zbekistonda ham ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun [3], O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [4] hamda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillardagi taraqqiyot strategiyasi [5] ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini yangilash, o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, ta’lim sifatini xalqaro baholash tadqiqotlari mezonlari bilan uyg‘unlashtirish vazifasi ham belgilangan.

Biroq pedagogik adabiyotlarda ta’lim mazmuni konsepsiyalari ko‘pincha alohida-alohida yoritilgan bo‘lib, jahon va milliy yondashuvlarni yagona tarixiy-nazariy tizimda qiyosiy tahlil qilish hamda ulardan o‘qituvchining tanlov faoliyati uchun amaliy xulosalar chiqarish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur zarurat tufayli quyidagi vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi, jumladan:

birinchi, ta’lim mazmuni tushunchasining mohiyati va unga nisbatan jahon pedagogikasida shakllangan asosiy konsepsiyalarni tarixiy izchillikda o‘rganish;

ikkinchi, O‘zbekiston pedagogikasida ta’lim mazmunini belgilashning tarixiy bosqichlarini aniqlash va zamonaviy huquqiy-meyoriy asoslarini tahlil qilish;

uchinchi, jahon va milliy yondashuvlarni qiyoslash asosida o‘qituvchining ta’lim mazmunini tanlash va saralash faoliyatini belgilovchi nazariy-pedagogik mezonlarni asoslash.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur vazifalarning yechimi ta’lim mazmunini faqat davlat darajasida belgilanadigan hujjat sifatida emas, balki o‘qituvchi tomonidan har bir dars va har bir o‘quv materiali darajasida amalga oshiriladigan izchil kasbiy tanlov jarayoni sifatida talqin qilishni taqozo etadi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar sharhi

Ta’lim mazmuni muammosi didaktika fani bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Y.A. Komenskiy o‘zining «Buyuk didaktika» asarida «hamma narsani hammaga o‘rgatish» g‘oyasini ilgari surgan bo‘lib, uning pansofiya ta’limotida bilimlarning to‘liqligi va tizimliligi muhim o‘rin tutgan [6]. Bu yondashuvni ensiklopedik konsepsiyaning ildizi deb hisoblash mumkin. Bizning fikrimizcha, Komenskiy g‘oyasi bilimlar hajmi cheklangan davrda o‘zini oqlagan bo‘lib, bugungi axborot ko‘pligi sharoitida uni aynan takrorlash o‘quvchilarning ortiqcha yuklanishiga olib keladi.

I.F. Gerbart ta’lim mazmunini o‘quvchida ko‘p tomonlama qiziqish va axloqiy xarakterni shakllantiruvchi «tarbiyalovchi ta’lim» nuqtai nazaridan asoslab bergan [7]. G. Spenser esa «qaysi bilim eng qimmatli?» degan savolni qo‘yib, ta’lim mazmunini insonning to‘laqonli hayoti uchun foydalilik mezoni asosida tanlashni taklif etgan [8]. Ushbu ikki olimning qarashlariga tayanib shuni aytish mumkinki, ta’lim mazmunini tanlashda rivojlantiruvchi va amaliy-foydali jihatlar o‘rtasidagi muvozanat masalasi pedagogikada qadimdan dolzarb bo‘lib kelgan.

J. Dyui ta’lim mazmunini bolaning o‘z tajribasi va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qurishni, bilimni faoliyat jarayonida o‘zlashtirishni asoslagan [9]. R. Tayler esa o‘quv dasturini ishlab chiqishning to‘rt savolini (maqsad, o‘quv tajribasi, uni tashkil etish va baholash) ajratib, ta’lim maqsadlarini o‘quvchi, jamiyat va fan mutaxassislari talablaridan kelib chiqqan holda belgilashni, so‘ngra ularni falsafiy va psixologik «filtrlar»dan o‘tkazishni tavsiya etgan [10]. Aynan shu g‘oya o‘qituvchining «tanlash» va «saralash» faoliyati mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

B. Blum boshchiligidagi tadqiqotchilar ta’lim maqsadlari taksonomiyasini yaratib, bilish sohasidagi maqsadlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tartibga solgan [11]. J. Bruner esa fanning asosiy g‘oya va tuzilmasini o‘zlashtirish hamda «spiralsimon o‘quv dasturi» g‘oyasini ilgari surgan [12].

Rus didaktikasida I.Y. Lerner, M.N. Skatkin, V.V. Krayevskiy ta’lim mazmunini ijtimoiy tajribaning pedagogik jihatdan moslashtirilgan shakli sifatida talqin qilib, uning to‘rt tarkibiy qismini – bilimlar, faoliyat usullari (ko‘nikma va malakalar), ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-qadriyat munosabatlar tajribasini ajratganlar [13, 14]. V.V. Krayevskiy va A.V. Xutorskoy ta’lim mazmuni umumnazariy, o‘quv fani, o‘quv materiali hamda o‘quvchi shaxsi darajalarida loyihalashtirilishini asoslaganlar [14, 15]. V.I. Zagvyazinskiyning o‘qitish nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida esa ta’lim mazmunini o‘qitish jarayoni va o‘quvchi imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rish zarurligi ta’kidlanadi [16].

D. Rayxen va L. Salganik tahriri ostidagi DeSeCo loyihasida hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan kalit kompetensiyalar uch guruhga – vositalardan interaktiv foydalanish, turli guruhlarda hamkorlik qilish va mustaqil harakat qilishga birlashtirilgan [17]. M. Yang esa «qudratli bilim» tushunchasi orqali ta’lim mazmunida fanlar bilimining o‘rnini qayta tiklash zarurligini ta’kidlaydi [18]. Bizning fikrimizcha, bu qarash kompetentlik yondashuvining bilimni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yish xavfiga qarshi muhim muvozanat vazifasini bajaradi.

O‘zbek pedagogikasida ta’lim mazmuni masalasi Sharq mutafakkirlari merosidan boshlanadi. Abu Nasr Forobiy ta’lim maqsadini insonning kamoloti va baxt-saodatga erishuviga bog‘lab, bilim va fazilatning uyg‘unligini ta’lim mazmunining negizi sifatida ko‘rgan [19]. Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud ahloq» asarida tarbiyani jismoniy, fikriy va axloqiy yo‘nalishlarga ajratib, ta’lim mazmunini ana shu uch tomonlama rivojlanishga xizmat qildirishni nazarda tutgan [20]. Zamonaviy o‘zbek didaktikasida esa J.G’. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonov pedagogik texnologiya asosida

ta’lim mazmunini aniq maqsadlarga yo‘naltirish va natijalarni diagnostika qilish g‘oyalarini rivojlantirganlar [21].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim mazmuni konsepsiyalari bir-birini inkor etmasdan, balki bir-birini to‘ldirgan holda rivojlangan. Biroq ularning qiyosiy tahlili asosida o‘qituvchining amaliy tanlov faoliyatiga xizmat qiluvchi mezonlar tizimini shakllantirish masalasi yetarli yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasini nazariy-tahliliy yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi – jahon va O‘zbekiston pedagogikasida ta’lim mazmuni konsepsiyalarini qiyosiy o‘rganish va ular asosida o‘qituvchining ta’lim mazmunini tanlash va saralash faoliyatini belgilovchi nazariy-pedagogik mezonlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy tahlil (konsepsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanish izchilligini aniqlash), qiyosiy-solishtirma tahlil (yondashuvlarni mezonlar bo‘yicha taqqoslash), meyoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish, tizimli yondashuv hamda sintez va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalarini O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonun va farmonlari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari, xorijiy va o‘zbek olimlarining monografiya va ilmiy maqolalari tashkil etdi. Mazkur maqola nazariy xarakterga ega bo‘lib, mezonlarning amaliy samaradorligini aniqlash kelgusidagi pedagogik tajriba-sinov ishlarining vazifasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Ta’lim mazmuni – ijtimoiy tajribaning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish uchun pedagogik jihatdan tanlangan va moslashtirilgan qismidir. Uning ichidagi «tanlash» va «saralash» jarayonlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bir xil emas: tanlash keng bilimlar maydonidan ta’lim maqsadiga mos yo‘nalishlarni ajratib olishni, saralash esa tanlangan

materialni muayyan mezonlar asosida o‘tkazib, hajm va murakkablik jihatidan o‘quvchiga moslashtirishni anglatadi. Har bir konsepsiya ta’lim mazmunini tanlashda bitta ustuvor mezonga tayangan: ensiklopedik yondashuv – to‘liqlikka, utilitar yondashuv – foydalilikka, pragmatik yondashuv – o‘quvchi tajribasiga, fan tuzilmasiga asoslangan yondashuv – fanning mantiqiga, kompetentlik yondashuvi esa natijaning qo‘llanilishiga. Aynan shu bir tomonlamalik har bir konsepsiyaning o‘ziga xos cheklovlarini keltirib chiqargan. Zamonaviy didaktika esa bu mezonlarni bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida birlashtirishga intilmoqda.

Milliy ta’lim mazmunining rivojlanishi uchta qonuniyatga ega: birinchidan, ma’naviy-axloqiy asos (Forobiy va Avloniy g‘oyalari) har bir davrda saqlanib qolgan; ikkinchidan, dunyoviy va amaliy bilimlarning ulushi bosqichma-bosqich ortib borgan; uchinchidan, zamonaviy bosqichda mazmunni belgilashda markazlashtirilgan meyorlar bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy tanlovi ham muhim omilga aylanmoqda. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun [3] va 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [4] o‘quv dasturlarining yakuniy natijalarga yo‘naltirilishini taqozo etadi; bu esa o‘qituvchidan mazmunni tayyor holda o‘zlashtirishni emas, balki uni maqsad va sharoitga moslab tanlashni talab qiladi.

L. Shulman ta’riflagan pedagogik mazmun bilimi, ya’ni o‘qituvchining fan mazmunini o‘quvchi uchun tushunarli shaklga keltira olish qobiliyati bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega [22]. Ta’lim maqsadlarining murakkablik darajalarini Anderson va Kratvolning qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyasi asosida belgilash esa tanlangan mazmun o‘quv natijalariga mos kelishini tekshirishga imkon beradi [23].

Jahon va milliy konsepsiyalarni qiyoslash asosida o‘qituvchining ta’lim mazmunini tanlash va saralash faoliyatini belgilovchi quyidagi yetti guruh nazariy-pedagogik mezonni asosalash mumkin:

a) ilmiylik va zamonaviylik – mazmunning fan yutuqlariga mosligi, ishonchli manbalarga tayanishi va yangilanib turishi (fan tuzilmasiga asoslangan va «qudratli bilim» g‘oyalari);

b) maqsadga muvofiqlik – tanlangan materialning belgilangan ta’lim maqsadi va kutilayotgan natijalarga xizmat qilishi (Tayler va Blum g‘oyalari);

c) yosh va psixologik xususiyatlarga moslik – mazmunning o‘quvchi tayyorgarligi, qiziqishi va o‘zlashtirish imkoniyatlariga mutanosibligi (Dyui g‘oyasi);

d) uzviylik va mantiqiy izchillik – mazmunning fan ichida hamda fanlararo o‘zaro bog‘liqligi, bosqichlararo uyg‘unligi (spiralsimon o‘quv dasturi g‘oyasi);

e) amaliy yo‘naltirilganlik va kompetentlik – mazmunning hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilishi va kalit kompetensiyalarni rivojlantirishi (utilitar va kompetentlik yondashuvlari);

f) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqlik – mazmunning ma’naviy-axloqiy tarbiya imkoniyatlari (Forobiy, Avloniy g‘oyalari);

g) hajm va vaqt mutanosibligi – tanlangan mazmunning ajratilgan o‘quv vaqtiga sig‘ishi va o‘quvchini ortiqcha yuklamasdan o‘zlashtirilishi (ensiklopedik yondashuv cheklovlarini bartaraf etish).

Bu mezonlarning har biri alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgandagina samara beradi. Masalan, ilmiylik va zamonaviylik mezoni ustuvor qo‘yilib, hajm va vaqt mutanosibligi inobatga olinmasa, mazmun o‘quvchi uchun ortiqcha yuklamaga aylanadi; amaliy yo‘naltirilganlik haddan tashqari kuchaytirilsa, fundamental bilimlar zaiflashishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi tanlash bosqichida maqsadga muvofiqlik va ilmiylik mezonlariga, saralash bosqichida esa yosh xususiyatlariga moslik, uzviylik hamda hajm-vaqt mutanosibligiga ko‘proq tayanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o‘qituvchining ta’lim mazmunini tanlash va saralash faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

birinchi, jahon pedagogikasidagi ensiklopedik, formal, utilitar, pragmatik, fan tuzilmasiga asoslangan, faoliyatli-tajribaviy va kompetentlikka asoslangan konsepsiyalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha ta’lim mazmunini tanlashning turli mezonlarini ifodalaydi. Shu sababli amaliyotda ulardan birini mutlaqlashtirish emas, balki uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir;

ikkinchi, O‘zbekiston pedagogikasida ta’lim mazmuni ma’naviy-axloqiy asosni saqlagan holda bosqichma-bosqich dunyoviy, amaliy va kompetentlikka yo‘naltirilgan mazmun tomon rivojlangan. Zamonaviy bosqichda bu rivojlanishning barqarorligi o‘qituvchining mazmunni ongli tanlash malakasiga bog‘liq;

uchinchi, o‘qituvchining tanlov faoliyatini nazariy-pedagogik mezonlar (ilmiylik, maqsadga muvofiqlik, yosh xususiyatlariga moslik, uzviylik, amaliy yo‘naltirilganlik, qadriyatlarga muvofiqlik, hajm va vaqt mutanosibligi) asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Buning uchun malaka oshirish tizimida mezonlarga asoslangan metodik qo‘llanma va baholash kartalarini joriy etish, kelgusi tadqiqotlarda esa ularning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. Reimagining our futures together: a new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. Paris: OECD, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
6. Comenius J.A. Didactica Magna (Opera Didactica Omnia). Amsterdam, 1657.
7. Herbart J.F. Allgemeine Pädagogik aus dem Zweck der Erziehung abgeleitet. Göttingen, 1806.
8. Spencer H. Education: Intellectual, Moral, and Physical. London: Williams and Norgate, 1861.
9. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
10. Tyler R.W. Basic Principles of Curriculum and Instruction. Chicago: University of Chicago Press, 1949.
11. Bloom B.S. (ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay, 1956.
12. Bruner J.S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
13. Lerner I.Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. Moskva: Pedagogika, 1981.
14. Kraevskiy V.V. Soderzhanie obrazovaniya: vperyod k proshlomu. Moskva: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2000.
15. Kraevskiy V.V., Xutorskoy A.V. Osnovy obucheniya. Didaktika i metodika. Moskva: Akademiya, 2007.
16. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya: sovremennaya interpretatsiya. Moskva: Akademiya, 2001.

17. Rychen D.S., Salganik L.H. (eds.). Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Göttingen: Hogrefe & Huber, 2003.
18. Young M. Bringing Knowledge Back In: From Social Constructivism to Social Realism in the Sociology of Education. London: Routledge, 2008.
19. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
20. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. Toshkent, 1913.
21. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
22. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 1986, 15(2), pp. 4–14.
23. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001.